

FARG‘ONA VA TOSHKENT MUSIQA USLUBLARINING PEDAGOGIK
AHAMIYATI: O‘QUV JARAYONIDA QO‘LLANILISHI

Yusupov Oybek Ulug`bek o`g`li

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqa ta`limi va san`at yo`nalishi magistratura

1-kurs talabasi

Annotatsiya: Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublarini o‘quv jarayonida qo‘llash pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarning estetik va madaniy bilimlarini oshiradi. Ushbu maqolada mazkur musiqa uslublarining pedagogik potentsiali, ulardan foydalanish metodlari va ta'lim jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, musiqa ta'limi, Farg‘ona-Toshkent uslubi, madaniy meros, estetik tarbiya.

Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublari o‘zining boy tarixi va uslubiy xususiyatlari bilan milliy madaniyatimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu uslublar faqat musiqa san‘atiga emas, balki ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublarining pedagogik ahamiyati va ularning ta'lim jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilishda bir qator manbalar va ilmiy ishlarga tayanganmiz. Milliy musiqa san‘ati, xalq maqomlari va katta ashulalarni o‘rganish bo‘yicha o‘zbek musiqa mutaxassislari (masalan, Yunus Rajabiy va Fayzulla Karimov) muhim hissalar qo‘shgan. Shuningdek, zamonaviy musiqa ta'limi usullari va ularning milliy meros bilan integratsiyasi masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Adabiyotlar tahlili va bibliografik ma’lumotlarni jamlash;
- Musiqiy namunalarni tahlil qilish va ularning pedagogik qimmatini aniqlash;
- O‘quv jarayonida Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublarini qo‘llash bo‘yicha eksperimental yondashuv.

Natijalar

Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublarining pedagogik ahamiyati va ularning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi mavzusi bo‘yicha quyidagi asosiy jihatlarni ko‘rib chiqish mumkin:

Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublarining o‘ziga xosligi

- Farg‘ona uslubi: Sof lirizmga moyil, qo‘shiq va cholg‘u ijrochiligi samimiyligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda his-tuyg‘ularning nozik ifodasi va ohanglarning mayinligi ustuvor.

- Toshkent uslubi: Dinamik, shijoatli va kuchli energetikaga ega. Ritmik jihatdan murakkabroq bo'lib, ijrochilikda o'ziga xos texnik talablar qo'yiladi.

Uslublarning pedagogik ahamiyati

- Madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish: Bu uslublar xalq musiqasini o'rgatish orqali o'quvchilarda milliy g'urur va o'zligini anglashni rivojlantiradi.

- Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish: O'quvchilarning ritmik sezgisi, his-tuyg'ularni ifoda qilish qobiliyati va musiqiy ijrochilik texnikasi takomillashadi.

- Didaktik yondashuv: Farg'ona va Toshkent uslublari orqali musiqa nazariyasi va amaliyoti birlashtirilgan tarzda o'rgatiladi.

O'quv jarayonida qo'llanilishi

- Amaliy mashg'ulotlar: O'quvchilarga Farg'ona va Toshkent uslubidagi kuy va ashulalarni ijro qilishni o'rgatish.

- Ma'ruzalar va nazariy darslar: Har bir uslubning tarixi, rivoji va uslubiy xususiyatlari haqida bilim berish.

- Didaktik materiallar tayyorlash: Qo'shiqlar, kuylar va ularning musiqiy tahlili asosida darslik va elektron resurslar yaratish.

- Jamoaviy ijro mashg'ulotlari: Har bir uslubning jamoa bilan ijro etilishi orqali o'quvchilarning birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Pedagogik samaradorlik

- O'quvchilarning milliy musiqa madaniyatiga qiziqishini oshiradi.

- Musiqaga bo'lgan ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

- Talabalarning shaxsiy qobiliyatlarini ochib berishda yordam beradi.

Toshkent–Farg'ona mahalliy – musiqiy uslubi. Ma'lumki, ushbu katta hududning aksariyat yirik shahar va qishloqlarida aholi zich joylashgan. Hududning an'anaviy musiqa ijodiyoti umummilliy, o'ziga xos mahalliy boshqa uzoq–yaqin qo'shni mintaqalardagidan ayrim farqli xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.

Farg'ona – Toshkent cholg'u musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir. Bulardan: “Dilxiroj”, “Andijon polkasi”, “Farg'onacha rez”, “Tanovor”, “Namangan olmasi”, “Katta o'yin” kabi raqs kuylarini aytish mumkin.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida xotin – qizlar ijodi unumli bo'lib, ular orasida, jumladan, tarafma – taraf lapar aytishlar, turli qo'shiqlarni kuylash, to'y marosim aytimlari bo'lgan “yor – yor”, “kelin salom” va o'lanlarni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida, ayniqsa, yallalar sevib ijro etiladi.

Yalla – ko'p xususiyatlari, jumladan, raqs boplik qo'llari, ijroda ko'pchilikning ijro etishi kabi jihatlar bilan laparga yaqin bo'lgan janrdir. Ammo laparda, eng avvalo, aytishuvlik sifati muhim bo'lgan holda, yallada badiiy so'z(she'riyat), kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqarordir, shu boisdan yallaga “raqsiy aytim” (F.Karamatov), ya'ni raqs bilan kuylanadigan aytim iborasi qo'llanib turiladi. Ushbu holat “yalla” atamasida ham ma'lum aks etgan. Chunonchi, og'zaki ijodida “yalla” so'zi “o'ynab-

kulish” va umuman, xushvaqtlik bo’lishlik ma’nolarida qo’llaniladi. Shundan kelib chiqqan holda “yalla” so’zi “o’ynab - kuyla” qisqartma “yal-la” birikmasidagi ifodasidir, deb aytish mumkin. Yalla – bu band naqarot shakliga ega aytim bo’lib, u raqsga tushib kuylanadi. Bunda yakkaxon yallachi doira jo’rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqarotlarni davrada hozir bo’lgan ko’pchilik qo’shilib aytadi. Bundan tashqari Buxoro – Samarqand sozandalar va Xorazm xonandalariga yaqin bo’lgan kasbiy yallachilar ham bo’lib, ular yakka holda yoki ansambl tarzida namoyon bo’ladi.

Yakka holdagi yallachi, odatda, o’z aytimlariga dutor yoki doira sozida jo’r bo’ladi. Yallachilar ansambli esa 2-3 ayoldan iborat bo’lib, faqat doira jo’rligida kuylaydilar xotin – qizlar davrasida hozir bo’lgan yallachilarning repertuari asosan qo’shiq, lapar, yalla va to’y marosimi aytimlarida tuzilgan bo’ladi.

Hadyaxon Hamdamova, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Rahima Mirzohidova va oyimqiz To’xtaevalar yallachilik san’atining mohir ijrochilari edi. Shu yerda yallaga bir misol taqdim etib, so’ng fikrni davom etamiz.

Gulyoraxon. Xalq so’zi. Yallachilarning yana bir ko’rinishi ham borki, uning ijrochilarini Namanganda “satang” deb ataydilar. Satang – yallachilar ko’proq turkum shaklida bo’lgan (ya’ni ikki qism va undan ortiq bo’lgan) katta yallalarni doira jo’rligida raqsga tushib aytadilar. Xolisxon Qirg’izboeva, Saltanatxon Alieva Namanganda taniqli satang yallachilar bo’lganlar.

Yallaning o’ynab kuylash xususiyati uning so’z(she’r) va kuy (musiqa) asoslarida o’ziga xos aks etadi. Jumladan barmoq vaznidagi she’rlarni asosan yengil hazil mutoyiba bilan yo’g’rilgan sevgi mavzularida bo’lib, uning naqarotlarida o’ynab – kulishga, xushkayfiyat bo’lishga da’vat etuvchi “Yalla” so’zi hamda uning “yallo”, “yalli” kabi shakllari ishlatiladi.

Yalloma yorim, yallola,

Yallolashaylik, bedodlashaylik (va hokazo)

Ba’zan “yalla” o’rnida “O’yin”, “O’ynasin”, “aylansin”, “O’rgilay”, “tarallo”, “xoralli” kabi so’z– iboralar ishlatiladi.

Farg’ona – Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari ham muhim o’rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo’shiq singari aytimlarga nisbatat ovoz doirasining kengligi hamda kuygan so’lim, ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo’lgan xalq she’rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she’riyat asosida aytiladi. Ashulalar ijod etilishiga ko’ra ikki xil bo’lishi mumkin:

Xalq og’zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar.

Nisbiy musiqaga oid ustoz bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar.

“Ey nozanin”, “Tanovor”, “Oydek to’libdur”, “Farzona”, “Ul parivash” singari xalq ashulalari nafaqat hofiz – ashulachilar, balki ziyolilar, hunarmandlar, kabilar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. Shuningdek, bu turdagi ashulalar

xotin – qizlar tomonidan ham “ichkarida” kuylangan. Jumladan, “Chaman ichra”, “Tanovor”, “Qora sochim” kabi ashula yo’llari dutor jo’rligida xotin – qizlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Ayni vaqtda “Angorim”, “Galdir”, “Nilor”, “Beboqcha”, “Fig’on”, “Chaman yalla” singari ashulalarni asosan kasbiy musiqachilar bo’lgan hofiz – ashulachilar kuylashadi. Bunda tanbur – dutor jo’rnavozligi ko’p qo’llaniladi.

Ashulalar, an’anaga ko’ra, turli yig’in va majlislarda, to’y marosimlari va boshqa xalq tantanalarida ijro etilgan. Choyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqalari ham o’tkazib turiladi.

Taniqli ashula ijrochilari qatorida Mamadbobo Sattarov, Boltaboy Rajabov, Erkaqori Karimov, Ortiqxo’ja Imomxo’jaev, Rasulqori Mamadaliev, Jo’raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Mukarrama Azizova, Zaynab Polvonova, Fattoxon Mamadaliev kabi mashhur san’atkorlar nomini hurmat bilan tilga olamiz.

Endi Farg’ona – Toshkent musiqa uslubida katta ashula haqida fikr yuritsak. Katta ashula – bu yirik hajmli ashula bo’lib, uning kuy – ohanglari keng nafasli hofizlar ijrosi uchun mo’ljallangandir.

Katta ashulani, odatda, ashulachi hofiz yoki 2 – 4 hamnafas ashulachi – hofizlar aytadilar. Bunda jo’rnovoz cholg’ular qo’llanilmaydi. Katta ashulalarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqiyimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarning diniy – falsafiy, pand – nasihat va boshqa mavzulardagi she’riy namunalari qo’llaniladi. Masalan:

Bir kelsun A.Navoiy g’azali.

Katta ashulalar ikki, uch yarim oktava oralig’ida bo’lgan rivojlangan kuylarga ega bo’lib, erkin ritm – o’lchov asosida badihaviylik (impravizatorlik) xususiyatlari bilan kuylanadi. Bu ashulalarning “patnusaki ashula” yoki “likobi ashula” singari boshqacha nomlari ham bor bo’lib, buning sababi ashulachi hofizlar ijro paytida qo’llarida patnis yoki likob (tarelka) ushlab turganliklaridadir.

Boltaboy hofiz, Hamroqul qori, Muhammadbobo Sattarov, Akbarqori Haydarov, Erkaqori Karimov, Jo’raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov kabi hofizlar katta ashulalarning mahoratli ijrochilari edilar. Bu san’atkorlar kuylagan “ko’p erdi”, “Bir kelsun”, “Ey, dilbari janonim”, “Adashganman”, “Do’stlar”, “Yovvoyi chorgoh” kabi katta ashulalari xalqimiz orasida sevimliliigi bilan mashhur va ma’lumdir.

Odatda, katta ashulani juda qadim zamonlardan to’y va boshqa marosimlarda xalq ko’p to’planadigan joylarda, sayllarda, ko’proq ochiq havoda ijro qilingan. Oldingi davrlarda kuylangan katta ashulalar ko’proq diniy mavzularga ega bo’lgan. Ollohga murojaatlar, marsiyalar kuylangan. Keyingi davrlarda esa zamonaviy ruhdagi ashulalar aytilgan.

Farg’ona va Toshkent musiqa uslublarining o’quv jarayonida qo’llanilishi, nafaqat musiqiy bilimlarni oshirish, balki talabalarni milliy o’zlik va madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham muhim rol o’ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy

ta'lim texnologiyalarini ushbu uslublar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi. Ba'zi cheklovlar sifatida esa musiqa o'qituvchilarining mazkur uslublar bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi va mos o'quv qo'llanmalarining yetishmasligi qayd etildi.

Xulosa

Farg'ona va Toshkent musiqa uslublarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi milliy o'zlikni rivojlantirish va estetik tarbiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu uslublar bo'yicha maxsus o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va o'qituvchilar uchun treninglar tashkil etish lozim. Shuningdek, musiqa ta'limida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o'quv jarayonini boyitish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Gaziyeu, J. J. (2024). NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI. *Inter education & global study*, (5 (1)), 456-465.
2. Joraxanovich, G. J. (2023). PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MUSICAL EDUCATION. *Open Access Repository*, 9(11), 8-10.
3. Собиров, Ю. Б. (2021). МЕТОДЫ ИЗМЕРЕНИЯ КОЭФФИЦИЕНТОВ ОТРАЖЕНИЯ ЗЕРКАЛ И КОЭФФИЦИЕНТОВ ПРОПУСКАНИЯ СТЕКОЛ. *Universum: технические науки*, (10-5 (91)), 5-12.
4. Gaziyeu, J. J. (2021). VOCAL MUSIC OF UZBEK COMPOSERS. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 260-262).
5. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
6. Ахадов, Ж. З., & Абдурахманов, А. А. (2017). Теплоэнергетические параметры и балансовое распределение энергии парового котла солнечных высокотемпературных установок. *Computational nanotechnology*, (1), 71-74.
7. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
8. Шашнева, Е. Н., & Газакова, С. (2021). ОБРАЗОВАНИЕ В КУЛЬТУРЕ ТУРКМЕНИСТАНА. *Печатается по решению редакционно-издательского совета Шуйского филиала ФГБОУ ВО «Ивановский государственный университет»*, 266.
9. Akhmedov, B. (2023). THE FIRST FORMATION PROCESSES OF UZBEK VOCAL PERFORMANCE. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 126-128.

10. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG 'ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 92-96.
11. Sayfiddinovich, A. B. (2023). AESTHETIC EDUCATION TO STUDENTS IN MUSIC CLASSES OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS.
12. Rakhimov, I. B. (2024). WAYS TO CREATE AND USE INTERNET RESOURCES IN GEOGRAPHY LESSONS. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 595-599.
13. Rakhimov, I. B. (2024). METHODS FOR DETERMINING THE IMPACT OF LOCAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS ON HUMAN HEALTH. *MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS FOR ORGANIZING A HEALTHY LIFESTYLE AND PROPER NUTRITION*, 1(01).
14. Ikhtiyor, R. (2024). Using the Kahoot Education Platform to Create E-Learning Resources in Geography Education. *Journal of New Century Innovations*, 67(4), 19-23.
15. Baxtiyor o'g'li, R. I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH.
16. Абдурахмонов, Б. М. (2023). УЧЕБНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КЛУБЫ КАК МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА В ВУЗАХ (ИЗ ОПЫТА КЛУБА "ГЕОГРАФ-ИССЛЕДОВАТЕЛЬ"). In *Современное географическое образование: проблемы и перспективы развития* (pp. 384-389).
17. Abduraxmonov, B. M. (2023). TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARI UCHUN KARTOGRAFIK KATALOG YARATISH. *Research and education*, 2(5), 319-325.
18. Суслов, В. Г., & Абдурахмонов, Б. М. (2020). Построение урока географии на основе деятельностного подхода. *География и экология в школе XXI века*, (2), 39-42.
19. Акабоев, И. З., Хакимов, М. М., & Турдалиев, И. Э. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КАРТ В ОХРАНЕ ПРИРОДЫ И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ. *Экономика и социум*, (6-1 (109)), 593-598.